

**INVESTITSIYA LOYIHALARIDA KORPORATIV IJTIMOIY
MAS'ULIYAT VA MAHALLIY AHOLO HUQUQLARINI TA'MINLASH
BO'YICHA XALQARO TAJRIYBA**

Joldasbaeva Gulimxan

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada korporativ ijtimoiy mas'uliyat tushunchasi, uning qo'llanilishi va mahalliy aholi huquqlarini himoya qilishi, investitsiya loyihalarida korporativ ijtimoiy mas'uliyat va mahalliy aholi huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro tajriyba, xorijiy davlatlar tajriybasi va amaliyoti, jumladan Germaniy va boshqa Evropa davlatlari qonun hujjatlari tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: korporativ ijtimoiy mas'uliyat, investitsiya, mahalliy aholi huquqlari, investitsiya loyihalari, xalqaro tajriyba, ekologik xafsizlik, ijtimoiy himoya.

**INTERNATIONAL EXPERIENCE IN ENSURING CORPORATE
SOCIAL RESPONSIBILITY AND THE RIGHTS OF LOCAL
POPULATIONS IN INVESTMENT PROJECTS**

ABSTRACT

This article analyzes the concept of corporate social responsibility, its application and protection of the rights of local residents, international experience in corporate social responsibility and protection of the rights of local residents in investment projects, the experience and practice of foreign countries, including the legislation of Germany and other European countries.

Keywords: corporate social responsibility, investment, local rights, investment projects, international experience, environmental safety, social protection.

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ КОРПОРАТИВНОЙ
СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ И ПРАВ МЕСТНОГО
НАСЕЛЕНИЯ В ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТАХ**

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется понятие корпоративной социальной ответственности, ее применение и защита прав местных жителей, международный опыт корпоративной социальной ответственности и защиты прав местных жителей в инвестиционных проектах, опыт и практика зарубежных стран, в том числе законодательство Германии и других европейских стран.

Ключевые слова: корпоративная социальная ответственность, инвестиции, права местного населения, инвестиционные проекты, международный опыт, экологическая безопасность, социальная защита.

KIRISH

Korporativ ijtimoiy mas'uliyat va mahalliy aholi huquqlarini ta'minlash bugungi kunda investitsiyalarning samaradorligi va barqarorligining ajralmas qismiga aylangan. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ochiqlik, halollik va hamkorlik asosida olib borilgan siyosat uzoq muddatli ijobiy natijalarini beradi. Mamlakatimizdagi qulay ishbilarmonlik muhiti va faol tashqi siyosat sababli investitsiyalar hajmi oshib bormoqda. Statistik malumotlarga ko'ra investitsiyalar hajmi o'tgan yilga nisbatan 20 foizga oshgan. Global miqyosda amalga oshiriliyotgan xorijiy va mahalliy investitsiyalar ishtirokidagi yirik loyihamar iqtisodiy tomondan o'sishga yordam beradi, shuningdek ijtimoiy va ekologik oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Xalqaro tajriybada bu yo'nalishda samarali yondashuvlar shakllangan bo'lib, ularni o'rghanish va amaliyotda qo'llash maqsadga muvofiq.

Asosiy qism.

Korporativ ijtimoiy mas'uliyat biznes xavfini kamaytirish orqali kredit xarajatlarini kamaytiradi va uning darajasi yuqori bo'lgan tashkilotlar ham iqtisodiy, ham ijtimoiy tomondan foyda oladi.¹

Korporativ ijtimoiy mas'uliyat – bu kompaniyalar o'z faoliyatida iqtisodiy foyda olishdan tashqari, jamiyat oldidagi mas'uliyatini ham hisobga olgan holda qarorlar qabul qilishidir. Xususan, atrof-muhitni muhofaza qilish, ishchilar huquqlarini ta'minlash, mahalliy jamoalarni qo'llab-quvvatlash korporativ ijtimoiy masuliyatning asosiy yo'nalishlaridandir. Xalqaro kompaniyalar o'z brend obro'sini saqlash va barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida korporativ ijtimoiy mas'uliyat tamoyillarini qo'llashga alohida e'tibor beradi. Xalqaro tashkilotlar, jumladan BMT, Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) tomonidan ishlab chiqilgan mezonlar korxonalarini korporativ ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga rioya qilishga va mahalliy aholi huquqlarini hurmat qilishga undaydi. Korporativ ijtimoiy mas'uliyat faqat xayriya yoki ijtimoiy loyihamarni qo'llab-quvvatlash emas, balki korxonaning asosiy faoliyatida ham ekologik barqarorlik, shaffoflik, inson huquqlariga hurmat, mahalliy aholi bilan muloqot va hisobdorlikni nazarda tutadi.

Korporativ ijtimoiy mas'uliyat tashabbuslari, kompaniyaga iste'molchilar, investorlar va mahalliy aholi nazarida ijobiy mavqega ega bo'lishiga va brend obro'si oshishiga yordam beradi.²

¹ Corporate social responsibilities, sustainable investment, and the future of green bond market: evidence from renewable energy projects in Morocco. <https://link.springer.com/article/10.1007/s11356-022-23080-y>

Xalqaro miqyosda korporativ ijtimoiy mas’liyat bo'yicha bir nechta muhim hujjatlar qabul qilingan. Ulardan biri, BMT Global Compact xalqaro tashabbus yoki volontyorlik asosida qatnashish imkonini beradigan shartnomalar hisoblanadi. Bu tashabbusning maqsadi bizneslarni ijtimoiy va ekologik mas’uliyatni hisobga olgan holda faoliyat yuritishga rag’batlantirishdir. BMT Global Compact’ining asosiy maqsadlaridan biri korporatsiyalarni inson huquqlari, mehnat huquqlari, atrof-muhit va korruptsiyaga qarshi kurashishga oid umume’tirof etilgan xalqaro standartlarga rioya qilishga chaqirish.

Xalqaro tajriba: xorijiy davlatlarda korporativ ijtimoiy mas’uliyat.

Kanada va Avstraliya tajribasi

Tabiiy resurslarga boy ushbu mamlakatlar yirik konchilik loyihamalarida mahalliy aholi, xususan, tub aholining huquqlarini kafolatlashga alohida e’tibor beradi. “Free, Prior and Informed Consent” (FPIC) tamoyili asosida, har qanday loyiha boshlanishidan avval mahalliy aholining roziligi olinadi.

Germaniya tajriybasi.

Germaniya – Yevropaning iqtisodiy jihatdan eng kuchli davlatlaridan biri bo’lib, u investitsiya siyosatida korporativ ijtimoiy mas’uliyat va inson huquqlarini ta’minlashni ustuvor yo‘nalish sifatida qaraydi. U nafaqat ichki siyosatda, balki xorijiy investitsiya faoliyatida ham ijtimoiy va ekologik mas’uliyatni talab qiladi.

Germaniyada 1970 yildan 2014 yilgacha bo’lgan davrda biznes, davlat va fuqarolik jamiyatida korporativ ijtimoiy mas’uliyat motivlari keskin o’zgarganini ko’rshimiz mumkin.³

2017 yilda Yevropa Ittifoqi moliyaviy bo’lmagan hisobotlar bo'yicha direktivani chiqardi (2014/95/EU), unga muvofiq 2018-yildan boshlab Germaniyada ham kompaniyalarning korporativ ijtimoiy mas’uliyat hisobotini e’lon qilishi belgilandi. Ushbu reglament yirik kompaniyalarga (500 dan ortiq xodimga ega bo’lganlar) yillik hisobotlarida moliyaviy bo’lmagan ma'lumotlarni, jumladan, atrof-muhit, ijtimoiy va xodimlar bilan bog’liq ta’sirlar, inson huquqlari va korruptsiyaga qarshi siyosatni oshkor qilish majburiyatini yuklaydi. Shuningdek, Germaniya faqat ichki amaliyot bilan cheklanmay, o’zining xorijdagi kompaniyalarini ham korporativ ijtimoiy mas’uliyat tamoyiliga rioya qilishga undaydi. Masalan, Afrika yoki Osiyo davlatlarida ishlab chiqaruvchi nemis kompaniyalariga mahalliy ishchilarning

² What is Corporate Social Responsibility? 4Types. <https://online.hbs.edu/blog/post/types-of-corporate-social-responsibility>

³ Vocabularies of Motive for Corporate Social Responsibility: The Emergence of the Business Case in Germany, 1970–2014. <https://www.cambridge.org/core/journals/business-ethics-quarterly/article/vocabularies-of-motive-for-corporate-social-responsibility-the-emergence-of-the-business-case-in-germany-19702014/D25A91F9173ADA367549D03FF70D221C>

huquqlari va mehnat sharoitlarini yaxshilash majburiyati yuklanadi. Bu orqali Germaniya inson huquqlari va ekologik mas'uliyatni global darajada ilgari surmoqda.

Xalqaro darajada korporativ ijtimoiy mas'uliyat va mahalliy aholi huquqlarini himoya qilish bo'yicha 3ta model shakllangan. Ular:

1. Shimoliy Evropa mamlakatlari (Belgiya, Niderlandiya, Norvegiya, Finlyandiya, Shvetsiya) uchun xarakterli bo'lib, u davlatning ijtimoiy va mehnat munosabatlarini tartibga solishda faol ishtirok etishini nazarda tutadi, bu uch darajada: milliy, tarmoq va individual korxona darajasida sodir bo'ladi.

2. Ikkinci model, asosan AQSH, Kanada, Yaponiya, Lotin Amerikasi mamlakatlari va ingliz tilida so'zlashuvchi Afrika mamlakatlarida qo'llaniladi, u ijtimoiy va mehnat munosabatlarini korxona darajasida, kamroq darajada esa sanoat yoki mintaqaviy darajada tartibga solish bilan tavsiflanadi. Davlat ta'siri qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar, tavsiyalar va talablarni qabul qilish orqali amalga oshiriladi. Shimoliy Amerika davlatlarida biznes birlashmalari korxonadagi ijtimoiy va mehnat munosabatlari jarayoniga aralashmaslikni afzal ko'radilar, lekin ular qonunchilik va siyosiy faoliyatda faol ishtirok etadilar.

3. Markaziy Evropa mamlakatlarida (Avstriya, Germaniya, Frantsiya) va qisman Buyuk Britaniyada keng tarqalgan, bu avvalgi ikkita modelning kombinatsiyasi bo'lib hisoblanadi.

XULOSA

Korporativ ijtimoiy mas'uliyat va mahalliy aholi huquqlarini ta'minlash bugungi kunda investitsiyalarning samaradorligi va barqarorligining ajralmas qismiga aylangan. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ochiqlik, halollik va hamkorlik asosida olib borilgan siyosat uzoq muddatli ijobiy natijalarni beradi. O'zbekiston bu yo'nalishda xalqaro standartlardan foydalanib, o'z milliy modelini shakllantirishi maqsadga muvofiq.

REFERENCES

1. А.Е.Суханов., Справнительное корпоративное право. 2014.
2. Mohammad Bitar and Mohammad Benlemlih. Corporate Social Responsibility and Investment Efficiency. (January 1, 2015). Journal of business Ethics, Forthcoming Available at SSRN.
3. Корпоратив ҳуқуқ. Рахмонкулов Ҳ.Р., Гулямов С.С. 2007. <https://library-tsul.uz/korporativ-u-u-ra-monkulov-r-gulyamov-s-s-2007/>
4. Xolmirzayev O'.P., Milliy va chet el korporativ huquqida nazorat qiluvchi shaxslarning xo'jalik jamiyatlari majburiyatlari bo'yicha javobgarligi. Dissertatsiya ishi.

5. Corporate social responsibility and their types.
<https://www.globalscienceresearchjournals.org/articles/corporate-social-responsibility-and-their-types.pdf>
6. Comparativ company law. Andreas Cahn and David C.Donald. 2010.
<https://www.cambridge.org/core/books/comparative-company-law/DBAE1FD0E8246C6E80AF3AA5A2A00C41>
7. Corporate social responsibilities, sustainable investment, and the future of green bond market: evidence from renewable energy projects in Morocco.
<https://link.springer.com/article/10.1007/s11356-022-23080-y>
8. What is Corporate Social Responsibility? 4Types.
<https://online.hbs.edu/blog/post/types-of-corporate-social-responsibility>
9. Vocabularies of Motive for Corporate Social Responsibility: The Emergence of the Business Case in Germany, 1970–2014.
<https://www.cambridge.org/core/journals/business-ethics-quarterly/article/vocabularies-of-motive-for-corporate-social-responsibility-the-emergence-of-the-business-case-in-germany-19702014/D25A91F9173ADA367549D03FF70D221C>